
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Jabborov Xazrat Xusenovich
Toshkent davlat sharqshunoslik va Aniq va ijtimoiy fanlar universitetlari professori, psixologiya fanlari doktori (DSc), Respublika “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi
E-mail: xxjabborov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada ota-ona va farzand munosabatlarini milliy tarbiya asosida tashkil etishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari yoritilgan. Oilaviy munosabatlarda milliy qadriyatlar, o‘zaro hurmat, muloqot va emotsional yaqinlikning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, milliy tarbiyaning farzand kamoloti va oilaviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, ota-ona va farzand munosabatlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, milliy qadriyatlar, muloqot, oilaviy barqarorlik.

Аннотатsiя: В статье рассмотрены социально-психологические возможности организатsии взаимоотношений родителей и детей в семье на основе natsионального воспитания. Проанализировано значение natsиональных ценностей, взаимного уважения, общения и эмоциональной близости в семейных отношениях. Также раскрыта роль natsионального воспитания в развитии ребенка и обеспечении стабильности семьи.

Ключевые слова: natsиональное воспитание, отношения родителей и детей, семейные отношения, социально-психологические факторы, natsиональные ценности, общение, стабильность семьи.

Abstract: This article examines the socio-psychological opportunities for organizing parent-child relationships in the family based on national upbringing. The importance of national values, mutual respect, communication, and emotional closeness in family relationships is analyzed. The study also highlights the role of national upbringing in child development and family stability.

Keywords: national upbringing, parent-child relationships, family relationships, socio-psychological factors, national values, communication, family stability.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashgan davrda oilaviy munosabatlarni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish masalasi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylangan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida shaxs kamolotida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, ota-ona va farzand

munosabatlarining sog‘lom tashkil etilishi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu jihatdan milliy tarbiya asosida ota-ona munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Masalaga daxldor adabiyotlardan ma’lumki, milliy tarbiya - bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, qadriyatlari, an’analari, axloqiy me’yorlari va ma’naviy merosiga asoslangan tarbiyaviy tizimdir. Milliy tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, oilaparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishdan iborat [1].

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Jumladan, sharq mutafakkirlari - Abu Nasr al-Farabi, Avicenna, Alisher Navoi, Abdulla Avloniy kabi allomalar oiladagi tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, oiladagi sog‘lom muhit va o‘zaro hurmat farzand shaxsining ijtimoiylashuvida hal qiluvchi omil hisoblanadi [2].

Masalaga daxldor tadqiqotlardan ma’lumki, ota-ona munosabatlari oiladagi emotsional muhit, o‘zaro muloqot, hamkorlik va psixologik yaqinlik asosida shakllanadi. Psixologik nuqtai nazardan sog‘lom oilaviy munosabatlar “o‘zaro hurmat va ishonch”, “emotsional qo‘llab-quvvatlash”, “hamkorlik va mas’uliyatni taqsimlash”, “nizolarni konstruktiv hal etish”, “ijobiy kommunikativ muhitning mavjudligi” kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Bizningcha, milliy tarbiya asosidagi oilalarda ushbu xususiyatlar yanada barqaror shakllanadi. Chunki milliy qadriyatlarda oilaning muqaddasligi, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va ahillik ustuvor o‘rin egallaydi.

Bizningcha, bugungi kunda milliy tarbiya asosida ota-ona munosabatlarini tashkil qilishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini tadqiq qilish va unda quyidagi komponentlarga alohida e’tibor qaratish muhim masala hisoblanadi. Jumladan, milliy qadriyatlar orqali oilaviy birdamlikni mustahkamlash. Milliy qadriyatlar oilada o‘zaro hurmat va ahillik muhitini shakllantiradi. Ayniqsa, “kattalarga hurmat”, “oilaviy mas’uliyat”, “mehr-oqibat”, “sabr-toqat”, “hamjihatlik” kabi qadriyatlar ota-ona munosabatlarini barqarorlashtiruvchi psixologik omillar hisoblanadi.

Shuningdek, sog‘lom muloqot madaniyatini rivojlantirishda milliy tarbiya oilada muomala madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ota-onaning farzand bilan samimiy va hurmatga asoslangan muloqoti farzandning psixologik himoyalanganligini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini hamda ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi. Shuningdek, oilada ochiq va samimiy muloqot nizolarni kamaytiradi hamda emotsional yaqinlikni kuchaytiradi. Shu bois, bu masalada milliy tarbiya orqali ota-onalar farzandlarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, ma’naviy mas’uliyat va tarixiy xotira kabi sifatlarni rivojlantirishi juda muhimdir. Bu esa yoshlarning turli yot g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetini kuchaytiradi [3].


Mazkur masalaning psixologik imkoniyatlari sifatida oilada psixologik barqarorlikni ta’minlash, stress darajasini kamaytirish, nizolar sonini qisqartirish va farzandlarning ruhiy salomatligini yaxshilashni ko‘rsatish mumkin. Bunday muhit shaxsning sog‘lom ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy tarbiya asosida shakllangan oilalarda ota-onalar farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashsagina deviant xulqning oldini olish, internet va virtual muhitning salbiy ta’sirini kamaytirish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Qolaversa, bugungi kunda globallashuv, ommaviy madaniyat va virtual muloqotning kuchayishi oilaviy qadriyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, individualizmning kuchayishi, ijtimoiy begonalashuv, oilaviy muloqotning kamayishi va ma’naviy qadriyatlarning susayishi kabi holatlar ota-ona munosabatlarida taranglikni yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli milliy tarbiya asosida oilaviy munosabatlarni tashkil qilish bugungi davrning muhim ijtimoiy ehtiyojiga aylanmoqda [4].

Biz tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim muassasasi talabalarida “Oiladagi xavotir tahlili so‘rovnomasi” hamda “Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi”ni o‘tkazdik va masalaga daxldor empirik natijalarni qo‘lga kiritdik. Mazkur empirik natijalar asosida ota-onalar, amaliyotchi psixologlar va pedagoglar uchun maqsadli hamda manzilli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oliy ta’lim muassasasi 1-kurs talabalari orasida “Oiladagi xavotir tahlili so‘rovnomasi” o‘tkazildi. Empirik natijalar quyidagi ko‘rsatkichlarni qayd etdi (1-rasm).



1-rasm. Oiladagi xavotir tahlili so‘rovnomasining empirik natijalari

Natijalarga ko‘ra, talabalarning 13%ida oilaviy hayotda aybdorlik hissi aniqlanildi. Oilaviy hayotda aybdorlik hissi - odamning o‘zini doimo oila ishlarida no‘noq, imillovchi va barchaga faqat halaqit beruvchi deb hisoblashga moyilligida ifodalanadi. Mazkur holat maqsadli va manzilli tarzda korreksiya qilinishi zarurdir.

Talabalarning 20%ida esa oilaviy hayotda xavotir hissi ustunlik qilishi aniqlandi. Oilaviy hayotda xavotir hissi - odamning oilaviy hayotda doimo nimagadir ulgurmaslik, nimanidir yaxshi bajara olmaslik yoki noto‘g‘ri qilib qo‘yishi mumkinligi haqidagi o‘y-fikrlarga moyilligida namoyon bo‘ladi.

Mazkur so‘rovnoma bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich oilaviy hayotda asabiy-taranglik holatida qayd qilindi, ya’ni sinaluvchilarning 67%ida ushbu holat kuzatildi. Oilaviy hayotda asabiy-taranglik - odamning oiladagi har qanday, hatto arzimas vaziyatlarda ham noo‘rin darajadagi xushyorlikni, haddan tashqari tirishqoqlikni, bezovtalikni va zaruridan ortiq harakatchanlikni namoyon etishga moyilligida ko‘rinadi. Demak, biz talabalar orasida oiladagi ijtimoiy-ma’naviy va psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan hamda oilada ota-ona–farzand munosabatlarini yaxshilash bo‘yicha tizimli psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bunday vaziyatlarda, ya’ni oiladagi xavotirli holatlarni bartaraf etishda psixologik xizmat ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada aybdorlik hissi yuqori bo‘lgan talabalar bilan olib boriladigan psixologik konsultatsiya ishlarida quyidagi tamoyillar inobatga olinishi kerak: talabada o‘zini qadrlash va o‘z imkoniyatlariga ishonchni tiklash lozim. Individual suhbatlarda o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash muhimdir. Oilada aybdorlik hissi yuqori bo‘lgan talabalar o‘rtasida “Men oilada qanday rol o‘ynayman?” mavzusida reflektiv suhbatlar tashkil etilishi lozim. O‘zini ayblash va real javobgarlik o‘rtasidagi farqni tahlil qilish hamda ularda “Ijobiy Men” konsepsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada xavotir hissi yuqori bo‘lgan talabalar bilan olib boriladigan psixokonsultatsiya ishlarida esa ularning ichki tinchligi va ishonchini mustahkamlash muhim hisoblanadi. Shuningdek, “Xavotir manbalari xaritasi” konsepsiyasi asosidagi ishlarni amalga oshirish lozim. Tinchlanish, nafas olish va meditatsion texnikalarni qo‘llash tavsiya etiladi. Oilada xavotir hissi yuqori bo‘lgan talabalarda “Nima bo‘lsa ham men eplay olaman” kognitiv o‘zgarish mashqlarini o‘tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Oilada asabiy-tarang holatdagi talabalar uchun olib boriladigan psixokonsultatsiya ishlarida esa stressni boshqarish va ijobiy emotsional muvozanatni tiklash kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, stressni kamaytirish strategiyalari bo‘yicha autotrening, mushaklarni bo‘shashtirish mashqlari hamda “Salbiy energiyani so‘ndiruvchi so‘zlar” mashqlarini o‘tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Oilada aybdorlik hissini korreksiya qilishda “O‘zini kechirish maktubi”, “Men oilada foydaliman, chunki...”, “Ijobiy o‘zini baholash ro‘yxati”, “Oila muammosini ayblovsiz hal qilish” kabi psixotexnikalarni qo‘llash tavsiya qilinadi [5].

Oilada xavotir hissini kamaytirishga qaratilgan korreksion ishlarda kognitiv qayta tuzish, “Eng yomon natija ham meni o‘zgartira olmaydi” yondashuvi, “Sokin joy” vizualizatsiya mashqi hamda tana va nafas bilan ishlash (Jacobson relaksatsiyasi asosida) kabi psixotexnikalarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Oilada asabiy-taranglikni pasaytirishga qaratilgan korreksion ishlarda “Qo‘yib yuborish” mashqi - harakat orqali stressni chiqarish, “Sokinlik zonasi” - auditoriyada tinch va yumshoq fon asosida mashq o‘tkazish, emotsional ventilatsiya - his-tuyg‘ularni so‘z orqali ifoda qilish kabi psixotexnikalarni qo‘llash tavsiya qilinadi.

Shuningdek, oilada xavotir hissi yuqori bo‘lgan farzandlar bilan ishlashda va bu xavotirlarni kamaytirishda quyidagi psixologik trening mashg‘ulotlari tavsiya etiladi:

- “Sog‘lom oilaviy muloqot” treningi. Mazkur treningning maqsadi oila ichidagi muloqot madaniyatini rivojlantirishdir. Mashqlar: “Eshitishni o‘rganaman” (faol va pozitiv tinglash), “Men-xabarim” (ayblamasdan fikr bildirish), “Oila qadriyatlari piramidasi”.
- “Stress va xavotirni boshqarish” treningi. Maqsad - tinchlik, barqarorlik va muvozanatni shakllantirish. Mashqlar: tana va nafas muvozanati mashqlari, “Stress holatini teatr orqali ifodalash”, “Ijobiy so‘zlar orqali kayfiyatni o‘zgartirish”.
- “O‘zini qadrlash va ichki ishonch” treningi. Mazkur treningning maqsadi talabalarning o‘z imkoniyatlarini tan olish va qadrlashga o‘rgatishdir. Mashqlar: “Menda nima bor?” - o‘z resurslarini sanash, “Komplimentlar zanjiri”, “Men kimman?” - ijobiy identifikatsiya mashqlari [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz oilada xavotiri mavjud bo‘lgan farzandlar bilan ishlashda pedagoglar uchun quyidagi amaliy psixologik tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- Talabalarda hissiy holatni kuzatish va stress belgilarini erta aniqlash;
- Tanqid emas, qo‘llab-quvvatlash orqali xulqni boshqarish;
- Mashg‘ulotlarda “psixologik dam olish daqiqalari”ni joriy etish.

Amaliyotchi psixologlar uchun esa quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Guruhli va individual psixoprofilaktika rejasini ishlab chiqish;
- Har bir hissiy holat uchun alohida konsultativ modul yaratish;
- Treninglar samaradorligini qayta baholash uchun so‘rovnoma va intervyular o‘tkazish.

Ota-onalar uchun esa quyidagi amaliy tavsiyalar muhim hisoblanadi:

- Farzandni oilaviy ishlarga jalb etishda unga ishonch bildirish;
- Tanbeh o‘rniga muloqot va tushuntirish usullarini qo‘llash;
- Uyda ijobiy emotsional muhit yaratish (birgalikdagi o‘yinlar, suhbatlar, kechki choy va boshqalar).

Demak, tadqiqotimizga xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra talabalarning muayyan qismida oilaviy hayotda salbiy hissiy

holatlarga moyillik aniqlangan: 13%ida aybdorlik hissi, 20%ida xavotir hissi va 67%ida asabiy-taranglik holati kuzatilgan. Bu esa talabalarning oilaviy munosabatlarda emotsional beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik hamda stressni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatadi.


Shu sababli psixologik xizmatda maqsadli konsultatsiyalar, korreksion mashg‘ulotlar va treninglar orqali talabalarni o‘z-o‘zini anglash, ichki tinchlikni saqlash hamda sog‘lom oilaviy muloqotni rivojlantirishga yo‘naltirish zarur. Bunda:

- psixologik konsultatsiyalar - aybdorlik, xavotir va taranglik manbalarini aniqlash hamda ijobiy fikrlashni shakllantirishga qaratiladi;
- psixokorreksion ishlar - salbiy hissiy holatlarni kamaytirish va o‘zini qadrlashni tiklashni ta’minlaydi;
- psixologik treninglar - sog‘lom muloqot, stressni boshqarish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ularni emotsional muvozanatni qo‘llab-quvvatlash, ijobiy muloqot va ishonch muhitini yaratishga yo‘naltirish zarur.

Umuman olganda, mazkur natijalar asosida olib boriladigan psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar talabalarning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligini oshiradi hamda ularning shaxsiy rivojlanishi va ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Navbatdagi tadqiqotimizda yana oliy ta’lim muassasasi talabalari orasida “Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi” o‘tkazildi. Empirik natijalar quyidagicha ko‘rsatkichlarni qayd qildi (2-rasm).



2-rasm. Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi empirik natijalari

Biz tadqiqotimiz davomida oliy ta’lim muassasasi talabalari orasida “Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi so‘rovnomasi”ni o‘tkazdik va masalaga daxldor empirik natijalarni qo‘lga kiritdik.

Empirik natijalar quyidagicha ko‘rsatkichlarni qayd qildi. Jumladan, ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishida “Qiziqish” shkalasi 33%ni tashkil qildi. Demak, ona qiziga kichik boladek, doimiy e’tiborga, yordam va g‘amxo‘rlikka muhtoj odamdek munosabatda bo‘ladi. Ona bir tomondan qizi bilan maslahatlashishga, ikkinchi tomondan esa uning mustaqilligini cheklashga moyil bo‘ladi. Ona qizining har bir istagini bajo keltirishga tayyorlikni namoyon etadi.

“Direktivlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 27%ni tashkil qildi. Ona qizini qattiq nazorat ostida saqlaydi, unga nisbatan osonlik bilan hukmronlik kuchini ishga tushiradi. Ona qizining o‘z shaxsiy fikrini bildirishga intilishini noxush qabul qiladi. Ona doimo o‘zini haq deb hisoblaydi, qizining aqli hali tegishli masalaga yetmasligini uqtiradi hamda muammolarni jazoning kuchi hal etadi degan fikrda bo‘ladi.

“Dushmanlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 20%ni tashkil qildi. Mazkur natija onaning qiziga nisbatan shubhalanuvchi munosabatda bo‘lishi va undan o‘zini masofada saqlashga intilishini ko‘rsatadi. Onaning shubhalanuvchanligi va o‘zini munosabatdan chetga tortishi qiziga nisbatan ustunlikni oshkora namoyon etishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur so‘rovnomaning “Avtonomlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 13%ni tashkil qildi. Onaning holati va harakatlari qizining holati hamda talablariga mutlaqo bog‘liq bo‘lmaydi. Ona qiziga nisbatan g‘amxo‘rlik va himoyaning har qanday shaklini inkor etadi. Ona qizi tomonidan har narsani kechirib yuboradigan, talabchan bo‘lmagan inson sifatida idrok qilinadi. Ona qizini hech qanday harakatga nisbatan rag‘batlantirmaydi, uning holatlariga tanqidiy fikrni sust va kamdan-kam bildiradi.

So‘rovnomaning “Beqarorlik” shkalasi bo‘yicha natijalar 7%ni tashkil qildi. Demak, bu shkalada ona qiziga munosabatda tarbiyaviy uslubni keskin va tez-tez o‘zgartirishga, ya’ni qattiqqo‘l tarbiyadan liberal yondashuvga, qizini emotsional yaqin olishdan esa inkor etishga oson o‘tish holati bilan ajralib turadi.

Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi bo‘yicha natijalar asosida quyidagicha psixologik konsultatsiya yo‘nalishlari belgilandi:

“Qiziqish” shkalasi bo‘yicha onaning qiz mustaqilligini to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Konsultatsiya mazmuni: “Chegaralar va yaqinlik” mavzusida suhbat - mehr va erkinlik muvozanatini tushuntirish. Ona bilan “farzandni himoya qilish va ishonch bildirish” o‘rtasidagi farqni anglash. Qiz bilan esa “Men mustaqilman, lekin mehrni qadrlayman” mavzusida suhbat o‘tkazish. Psixokorreksion texnikalar: “Erkinlik piramidasi” mashqi (ona va qiz o‘z mustaqillik chegarasini belgilaydi), “Men yordam so‘rasam, demak ishonaman” - o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi o‘yin.

“Direktivlik” shkalasi bo‘yicha hukmronlik va haddan tashqari nazoratni kamaytirish maqsad qilib olinadi. Konsultatsiya mazmuni: ona uchun “Farzand fikrini tinglash madaniyati” bo‘yicha suhbat, “Nazorat emas, hamkorlik” tamoyilini o‘rgatish.

Qiz bilan “Men o‘zimni ifoda etishim mumkin” deb nomlangan individual suhbat o‘tkazish. Psixokorreksion texnikalar: “Nazorat o‘rniga muloqot” rolikli mashqi, “Men seni eshitaman” rolli sahnalari (ona farzand fikrini to‘liq tinglashni o‘rganadi).

“Dushmanlik” shkalasi bo‘yicha ona-qiz o‘rtasida ishonch va iliqlikni tiklash muhimdir. Konsultatsiya mazmuni: o‘zaro his-tuyg‘ularni tan olish mashqlari (“Men seni his qilaman, sen meni”), ota-onada “emotsional sovuqlikning sabablari”ni ochish. Qizga o‘z hislarini ifoda etish (yozma yoki og‘zaki shaklda) o‘rgatiladi. Psixokorreksion texnikalar: “Ijobiy xotiralar kartasi” - ona va qiz birgalikda yoqimli xotiralarni eslaydi, “Kechirim mashqi” -o‘zaro his-tuyg‘ularni yumshatish.

“Avtonomlik” shkalasi bo‘yicha ona tomonidan e’tiborsizlikni kamaytirish va emotsional aloqani tiklash muhimdir. Konsultatsiya mazmuni: ona bilan “beparvolikning bolaga psixologik ta’siri” haqida suhbat, qizga “Mehrni qabul qilish va so‘rash” mashqlari o‘rgatiladi. Psixokorreksion texnikalar: “Qizi bilan 15 daqiqa” - har kuni qisqa, faqat suhbatga bag‘ishlangan vaqt, “Hislarni nomlash” - ona o‘z qizining holatini so‘z bilan ifoda qilishni o‘rganadi.

“Beqarorlik” shkalasi bo‘yicha tarbiyaviy uslubdagi izchillikni mustahkamlash zarur. Konsultatsiya mazmuni: ona uchun “Barqaror emotsional fon” bo‘yicha maslahat, “Bugun mehribon, ertaga sovuq” kabi o‘zgaruvchanlikning zararini tushuntirish. Psixokorreksion texnikalar: “Tarbiyada izchillik kundaligi” - ona har kuni qilgan tarbiyaviy qarorini yozib boradi, “Bir ovozda harakat” mashqi - har bir oila a’zosi bir xil signal asosida qaror qabul qiladi.

Psixologik treninglar sifatida “Ona va qiz o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi” treningi tavsiya qilinadi. Maqsad - emotsional yaqinlikni tiklash va o‘zaro tushunishni oshirish. Mashqlar: “Ko‘z bilan tinglash” - ona va qiz so‘zsiz bir daqiqa bir-biriga qaraydi, “Birgalikda eslaymiz” - bolalikdagi eng yaxshi voqeani navbat bilan aytish.

“Muloqotda erkinlik” treningi. Maqsad - fikr almashish va his-tuyg‘ularni erkin ifodalashni o‘rgatish. Mashqlar: “Men-xabar” texnikasi (ayblamasdan fikr bildirish), “Qarama-qarshi stullar” - har kim o‘z nuqtai nazarini himoya qiladi.

“Sog‘lom tarbiya uslublari” treningi. Maqsad - tarbiyadagi qat’iylik va yumshoqlik muvozanatini topish. Mashqlar: “Qattiqqo‘lmi yoki adolatlimi?” rolikli muhokama, “Qizimga nima beraman?” - onalar o‘z tarbiyaviy qadriyatlarini aniqlaydi [7].

Pedagoglarga psixologik tavsiyalar:

- talabadagi oilaviy-emotsional beqarorlikni erta aniqlash (xulq, e’tibor va ijtimoiy faollik orqali);
- ota-onalarga bolaning mustaqil fikr bildirishini qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushuntirish;
- dars jarayonida “emotsional dam olish daqiqalari”ni tashkil etish.

Psixologlarga tavsiyalar:

- ona-qiz juftliklarini alohida psixodiagnostika orqali tahlil qilish;
- har bir shkala bo‘yicha individual korreksion reja tuzish;
- treninglardan so‘ng psixologik monitoring o‘tkazish (o‘zgarishlarni qayd etish).

Ota-onalarga psixologik tavsiyalar:

- farzand bilan ishonchli va barqaror muloqot o‘rnatish;
- nazoratni emas, tushunishni ustuvor qilish;
- farzand his-tuyg‘ularini tan olish va qo‘llab-quvvatlash;
- tarbiyaviy uslubdagi barqarorlikni saqlash (bugun yumshoq, ertaga qattiq bo‘lmaslik).

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga xulosa qiladigan bo‘lsak, ona-qiz munosabatlarida turli darajadagi psixologik muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, onalarning 33%ida ortiqcha g‘amxo‘rlik va qizining mustaqilligini cheklovchi “qiziqish” holati, 27%ida nazorat va hukmronlikka asoslangan “direktivlik” xulqi, 20%ida ishonchsizlik va masofa saqlashga moyil “dushmanlik” munosabati, 13%ida emotsional befarqlikni ifodalovchi “avtonomlik” holati hamda 7%ida tarbiyadagi izchillik yetishmasligini bildiruvchi “beqarorlik” kuzatildi.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ona-qiz munosabatlarida hissiy yaqinlik, o‘zaro ishonch va muloqot madaniyatini shakllantirishga ehtiyoj yuqori. Shu bois psixologik xizmat jarayonida konsultatsiya, korreksiya va treninglar orqali:

- onalarda farzand mustaqilligini to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- nazorat va hukmronlik o‘rniga hamkorlik hamda tinglash madaniyatini rivojlantirish;
- emotsional sovuqlikni kamaytirish va ishonchli muloqotni tiklash;
- tarbiyaviy izchillikni ta’minlash zarur [8].

Bundan tashqari, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalarga sog‘lom tarbiya uslublarini singdirish hamda bolalar bilan ijobiy muloqot muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, bu yo‘nalishdagi psixologik xizmatlar ona-qiz o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, mehr, ishonch va hissiy muvozanatni mustahkamlash orqali oilaviy muhitning sog‘lomlashuviga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya oilada ota-ona munosabatlarini sog‘lom tashkil etishning muhim ijtimoiy-psixologik asosidir. Milliy qadriyatlar oiladagi emotsional yaqinlik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi. Ota-onalarning milliy tarbiya haqidagi psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish orqali oilalarda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin. Bu esa yosh avlodning barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210
2. M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” Toshkent «Ma’naviyat» 2013. 320 b.4.
3. Karimova V. Oila psixologiyasi. 2008- Toshkent. B.248
4. G‘oziyev E. Oila etikasi va psixologiyasi. 2006. - Toshkent. B.169
5. Shoumarov G‘. Oila psixologiyasi.2008 - Toshkent.B.245
6. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
7. X.X. Жабборов Влияние деструктивной «массовой культуры» на поведение и воспитание человека. Вестник интегративной психологии. Научный журнал. 23 (№23), С.109-111
8. X.X. Jabborov Yoshlarda tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ta’sirchan psixologik uslublari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar образование и инновационные. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Исследования education and innovative research № 5 2021/10 Б. 304-321

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA